

**MAHALLADA O'SMIRLARNI VIRTUAL OLAM TA'SIRIDAN HIMOYALANISHGA
TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR****T.Arzimbetov**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, ps.f.b.f.d.

(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15766014>

Annotatsiya. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida o'smirlar hayotida virtual muhit – internet, ijtimoiy tarmoqlar, komp'yuter o'yinlari va boshqa onlayn faoliyatlar muhim o'rin egallamoqda. Bu holat o'smirlarning shaxsiy rivojlanishi, real hayot bilan bog'lanishi va ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada o'smirlarning virtual muhitga moyilligini kamaytirishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislarining hamkorlikdagi faoliyati muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, bolalarda ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash, haqiqiy muloqotga qiziqishni rivojlantirish orqali ularni virtual dunyo ta'siridan himoya qilish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'z: virtual tarmoq, televideniye, radio, gazeta, axborot, kiberxavsizlik.

Аннотация. Сегодня, в результате стремительного развития цифровых технологий, виртуальная среда - интернет, социальные сети, компьютерные игры и другие онлайн-деятельности занимают важное место в жизни подростков. Это состояние может негативно повлиять на личностное развитие, связь с реальной жизнью и социальную адаптацию подростков. В статье подчеркивается важность совместной работы семьи, махалли, образовательных учреждений и специалистов, работающих с молодежью, в снижении склонности подростков к виртуальной среде. Также изучаются возможности защиты детей от влияния виртуального мира путем развития у них социальной активности, критического мышления, интереса к реальному общению.

Ключевое слово: виртуальная сеть, телевидение, радио, газета, информация, кибербезопасность.

Abstract. Today, as a result of the rapid development of digital technologies, the virtual environment - the Internet, social networks, computer games, and other online activities - occupies an important place in the lives of adolescents. This situation can negatively affect the personal development of adolescents, their connection with real life, and social adaptation. The article emphasizes the importance of joint activities of families, mahallas, educational institutions, and specialists working with youth in reducing adolescents' susceptibility to the virtual environment. Also, the possibilities of protecting children from the influence of the virtual world through the development of social activity, critical thinking, and interest in real communication are studied.

Keywords: virtual network, television, radio, newspaper, information, cybersecurity.

Jahon ta'lim tizimida, o'smir o'quvchilarning internet tarmog'i ma'lumotlari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali psixologik va pedagogik usullari ta'lim jarayoniga keng ko'lamda tatbiq etilgan. 2015-yil, Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan «Incheon declaration» da «Ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish», fan va ta'lim yutuqlarini o'quv materiallari mazmuniga singdirib borish,

yoshlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning psixologik chora-tadbirlarini yangi islohotlar darajasiga ko'tarish hamda uni amaliyotga tatbiq etishga alohida e'tibor berilgan.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida virtual olam vositalarining inson ongiga ta'sirini aniqlash, internetga qaramlikning oldini oldini olish, o'smir yoshlarning axborotlar bilan ishlay olish ko'nikmalarini ilmiy tekshirish, shuningdek, jamiyat hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash, texnogen o'zgarishlar sharoitida yoshlarni ekstremistik va separatistik tashkilotlarning vayronkor g'oyalaridan himoyalash hamda mahalla muhitida xavfsiz axborot muhitini ta'minlash, jamiyatning turli qatlam va submadaniyat kishilari orasida kiber xavfsizlikni barqarorlashtirish bo'yicha, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda, jamiyatning turli sohalarini zamonaviy axborot-texnologik vositalar bilan ta'minlash, sohalararo axborot savodxonligini oshirish, xavfsiz axborot muhitini joriy etish, yosh avlodni salbiy axborotlar xurujidan himoyalash, ochiq axborot tizimlarini qayta isloh qilish, jamiyat hayotini texnogen boshqarishda, bunyodkor axborot mahsulotlarini tayyorlash sifati va darajasini doimiy oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi hamda uning moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish tizimini joriy etish» ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Bu borada o'smir yoshlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlarning ilmiy-uslubiy dasturlaridan keng foydalanish, virtual olam ma'lumotlariga qaram bo'lishning omillari va undan himoalanishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarining ishlab chiqilishi, mahalla sharoitida o'smir yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning psixologik tashviqot dasturlarini yanada rivojlantirishga keng xizmat qiladi.

Ayrim yoshlar sharoitga tez moslashsalar, boshqalarining hayot yo'lini topishi, o'zini namoyon qilishi juda qiyin kechadi.

Katta hayotga endi qadam qo'yayotgan avlod vakillariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash bir qator jihatlariga ko'ra dolzarb hisoblanadi. Eng avvalo, yoshlar jamiyatimizning kelajagini belgilab beruvchi muhim demografik guruh hisoblanadi. Yoshlar shaxsini rivojlantirish esa axloqiy me'yorlar, qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatishi muqarrar bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy holat vaziyatida tobora murakkablashib bormoqda. Chunki, yoshlarning asosiy hayotiy rejalari ularning qadriyatlariga bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Yigitlar va qizlar kuch-g'ayratlari, imkoniyatlarini jamiyatning yanada taraqqiy topishi uchun zarur sohalar rivojiga yo'naltirish, shunga mos holda shakllanadigan xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish psixologik-pedagogik ta'sir va yordamning eng birinchi vazifalaridandir. Bunda, xususan, ularning salohiyatini to'g'ri o'zanga yo'naltirish va adekvat qadriyatlar tizimini shakllantirish yoshlarni mavjud rasmiy yoshlar tashkilotlari safiga ko'proq jalb etish, to'g'ri tarbiyalash ishlari bilan uyg'un holda olib borilishi zarur.

Ta'lim oluvchilar ota-onalari va pedagoglarning birgalikdagi o'zaro munosabati modelini yaratish ta'lim muassasasi va oilaning bir-biriga ko'rsatadigan ta'sirini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik-pedagogik mazmundagi barcha ishlar zahirida davlat, jamiyat, tashkilot va muassasalarning o'zaro hamkorligi darajasida amalga oshiriladigan vazifalar aks etishi va ular tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lishi zarur.

N.I.Koptelovanning ta'kidicha, psixologik-pedagogik ta'sirning quyidagi yo'nalishlar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz

– Yoshlarda kasbiy, ongli va ijtimoiy faoliyati strategiyasini, kelajak, istiqboldagi hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan qadriyatlar tizimini tarkib toptirish.

– Ijtimoiy takomil va mas'uliyat hissi me'yorini belgilaydigan ma'naviy ta'limni maqsadga muvofiq amalga oshirish, tafakkur madaniyatini shakllanti-rish;

– Yoshlar ham ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan jamiyatning turli sohalaridagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlovchi hayot tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan qadriyatlar ustanovkalari (yo'l-yo'riqlari)ni aniqlashtirish, umumlashtirish.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalarining hozirgi holati, imkoniyati ma'lumot, axborotning beto'xtov yetkazilishini ta'minlab bermoqda. Ikkinchi tomondan, ushbu axborot oqimi vaqt o'tgan sari ko'payib bormoqda. Bu xabarlar ma'lum darajada o'ziga xos axborot tahdidini yuzaga keltirmoqda.

T.L.Partikaning so'zlariga muvofiq, axborot psixologik ta'sir vositasi sifatida juda qudratli kuchga egadir. Shuning uchun mafkuraviy targ'ibot samaradorligi kuchli mamlakatlarning aholisini tanlagan yo'llaridan og'dirish qiyin kechadi. Axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi – bu insonning o'zi. Insonda ongning mavjudligi tahdid manbasini ifodalaydi.

O'zbekiston axborot hududida hukmronlik qilishga yo'naltirilgan harakatlari va turli noxolis siyosiy, harbiy, iqtisodiy, jamoaviy tuzilmalar vakillarining O'zbekiston fuqarolariga nisbatan salbiy ta'sir o'tkazishini ko'rsatish mumkin.

Jamiyatimizning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o'zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o'z yo'lini o'z tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgandir.

Zero, OAVning ijtimoiy ongni maqsadga muvofiq shakllantirish, aholining stereotiplari hamda ustanovkalarini tarkib toptirish borasidagi imkoniyatlari juda kengdir.

Yu.Kalinechenkoning yozishicha, ayrim xorij ommaviy axborot vositalari, internetning ekstremizm va terrorizmni targ'ib qilish borasidagi imkoniyatlari hamda bu borada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tahdidlarni bartaraf etish yo'nalishida respublikamizda muayyan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda ekstremizm va terrorizm zamonaviy OAV, internent bilan mustahkam aloqada faoliyat olib bormoqda. OAV o'z imkoniyatlari darajasida ularga qarshi profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda, mazkur salbiy holatlarning oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga g'araz niyatli shaxslar turli OAVlaridan o'z maqsadlarida ham foydalanishlari mumkin. A.Tulepovning so'zlariga ko'ra, destruktiv g'oyalarning tarqalishiga fazoviy ma'noda ma'muriy-hududiy jihatdan hech qanday chegara to'sqinlik qilolmaydi, ularga faqat siyosiy-psixologik jihatdangina qarshilik ko'rsatish va bartaraf etish mumkin. Faoliyati destruktiv maqsadlarga yo'naltirilgan OAV terrorizm, diniy aqidaparastlik, ekstremizmning real hayotdagi siyosiy va psixologik maqsadlari uchun o'ziga xos virtual vosita vazifasini bajarishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun faoliyati to'g'ri tashkil etilgan OAVlar e'lon qilayotgan materiallari bilan keng aholi qatlamlari, xususan yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va ularning dunyoqarashi shakllanishiga hissa qo'shishlari mumkin.

O.Y.Baksanskiyning ta'rificha, axborot makoni – bu, ko'zga ko'rinmaydigan bir virtual omildir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, u intellektual – ma'naviy hodisalar sirasiga kiradi. U moddiy ishlab chiqarish emas, balki bilim hamda aqlning mahsulidir.

Shu boisdan uni ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rniga ko'ra ilm-fan bilangina qiyoslash mumkin. Jismga, umuman moddiylikka adad, hajm, og'irlik, uzunlik va kenglik singari o'lchovlar xos bo'lsa, axborot esa aksincha unday xossalarga ega emas.

O'zbekistonda internetdan to'laonli foydalanish imkoniyati kamroq. Chunki, uy sharoitida internetdan foydalanuvchilar ozlikni tashkil qiladi. Ammo ko'p joylarda internet - klublar faoliyat yuritadi. U barcha aholi uchun mo'ljallangan. Ammo bu kabi joylarda biz ko'pincha voyaga yetmagan yosh bolalarni uchratamiz. O'tkazilgan so'rovnomada ma'lum bo'lishicha, internet – klublarga, asosan, 4-5 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan yosh bolalar online o'yinlar o'ynash, 11-17 yoshdagilar “chat” va “e-mail” da yangi do'stlar orttirish, muloqot qilish va musiqa yozib olish uchun kirar ekanlar.

K.V.Sel'chenokning aytishicha, bu kabi o'yinlar bolalarning psixologiyasida inson ruhiy holatini tushunish xususiyatining susayishiga, muloqot ko'nikmalarining yo'qolishiga, achinmaslik va shafqatsizlik xususiyatining kuchayishiga, egoizmning rivojlanishi kabi omillarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Bu salbiy sabablarni ko'pchilik bolalar va ularning ota-onalari bilsalar ham bunga e'tiborsiz munosabatda bo'ladilar. Buning evaziga bolalarning o'yinqaroq bo'lib qolishi, turli yot g'oyalarga tez og'ib ketish hollari ko'p uchraydi.

Axborot urushi keyingi paytlarda «axborot terrorizmi» deb ham atalmoqda. Internetda tarqalayotgan ko'plab ma'lumotlarning amaldagi qonunchilikka zidligi bu sohadagi muammo ko'plab davlatlar oldiga internet to'g'risida qonuniy hujjatlar qabul qilishni zarurat qilib qo'ydi.

Shuning uchun ayrim mamlakatlarda internet to'g'risida alohida qonunlar qabul qilingan bo'lsa, ba'zi mamlakatlarda bu to'g'risida huquqiy me'yorlar ishlab chiqilgan. Jumladan, AQShda internet kozinolari, bolalar pornografiyasini taqiqlovchi alohida qonunlar qabul qilindi.

Rossiya, Shvetsiya va bir qator Yevropa davlatlarida internet qaroqchiligiga qarshi kurash to'g'risidagi maxsus qonun qabul qilingan. Respublikamizga ham bu tarmoqni tartibga solish to'g'risidagi qonunlar va huquqiy me'yorlar, «Reklama to'g'risida»gi, «Aloqa to'g'risida»gi, «Elektron tijorat to'g'risida»gi, «Pochta aloqasi to'g'risida»gi, «Elektron hujjatlar aylanmasi to'g'risida»gi qonunlar qisman belgilab qo'yilgan.

Bu qonunlar biroz bo'lsa-da, axborot xurujining oldini olishi mumkin. Ammo bolalarning online o'yinlaridan kam foydalanishi uchun maxsus qonunlar yo'q. Bu ota-ona va pedagog zimmasidadir. Bolalarda asosan maktab davrida turli sohalarga qiziqish uyg'onadi. Maktablarda “Kompyuter asoslari” fani o'qitiladi. Shahar, tuman, chekka-cheikka qishloqlarda shu fan o'qitilish barobarida maktab yoshidagi bolalarga internet va uning cheksiz imkoniyatlari mavjudligini, shu bilan birgalikda uning salbiy tomonlari haqida ham ma'lumotlar berib borilishi lozim.

Hozirga qadar, o'smirlarda internet tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar masalasida, mamlakatimiz psixologiya fanida deyarli amalga oshirilmagan. Amalga oshirilgan ishlarning aksariyati, o'smirlik davrida bilan bog'liq sanaladi. Shuning uchun ham tadqiqotimizning nazariy–metodologik asoslari ko'proq, uzoq xorij olimlari va rus psixolog olimlari tadqiqotlari mazmuni bilan keng yoritilgan. Bizning mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham, ushbu masalani o'rganishga zarurat yuqori sanaladi. Faqat psixodiagnostik metodikalarni aynan internet tobeligining oldini olish va uni bartaraf etish xarakteriga ko'ra, tizimga keltirish, qolaversa, yangi shkalalar kiritish o'ta muhim ishlar turkumidan sanaladi.

Shaxs xarakter aksentuatsiyasini aniqlash so'rovnomalari natijalari shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik vakillari hujumning o'zi emas, balki kiberhujum oqibatlariga ko'proq javob berishadi.


Buning bir misoli – milliy elektr stantsiyasiga zararli dasturlarni yuqtirgan kiberhujum, yuz minglab fuqarolarning elektr energiyasiz qolishiga olib keladi. Bu yerda hujum, ya'ni zararli dasturlarning yuqishi odamlarni (jamoatchilikni) xavotirga solmasligi mumkin, ularning ta'siriga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Shaxs xarakter aksentuatsiyasini baholash so'rovnomasiga ko'ra sinaluvchilarning natijalari gipertim shkalasi bo'yicha quyi daraja 20%, o'rta 39% va yuqori 41%ni tashkil etgan.

Xavotirlanuvchi shkala bo'yicha quyi farq 35%, o'rta 37% va yuqori 28% bilan xarakterlangan. Distim shkalasi bo'yicha quyi farq 24%, o'rta 28% va yuqori daraja 48% bilan namoyon bo'lgan. Rasmiy shkalaga ko'ra quyi 22%, o'rta 28% va yuqori 50% ni tashkil etgan.

Qo'zg'aluvchan shkalaga ko'ra quyi farq 25%, o'rta 34% va yuqori 41%ni tashkil qilgan.

Emotiv shkalaga ko'ra quyi natija 18%, o'rta darajada 27% va yuqori darajada 55%ni tashkil qilgan. Navbatdagi rigid shkalaga ko'ra quyi 23%, o'rta 40% va yuqori 37% bilan farqlangan. Namoyishkor shkalaga ko'ra quyi farq 35%, o'rta 39% va yuqori farq 26% ni namoyon qilgan. Sikloid shkalasi bo'yicha quyi farq 38%, o'rta 42% va yuqori 20%ni qayd etgan. Oxirgi ekzaltr shkalasiga ko'ra quyi natija 27%, o'rta 35% va yuqori natija 38% bilan aks etgan.



Maqolada bo'yicha ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar va ilmiy kontsepsiyalarning mazmunidan shuni anglash mumkinki, virtual olam ya'ni kiber makonning inson ongiga ta'sirini keng ko'lamli o'rganish nafaqat, psixologiya fani uchun muhim balki, pedagogika, falsafa, soitsologiya, huquqshunoslik kabi fanlar uchun ham o'ta qiziq, dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masaladir. Chunki, internet bir tomonidan kognitiv soha rivoji uchun ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan inson xulq -atvorida o'ziga xos noodatiy o'zgarishlar keltirib chiqaruvchi midea olam hisoblanadi. Shuning uchun ham, virtual olamga tobelikni - haqiqiy dunyoning hech qanday qiyinchiliklari va muammolari bo'lmagan sun'iy olamga singib ketish hodidasi bilan tavsiflash mumkin.

Qoidaga ko'ra, kompyuter texnologiyalari o'smirning ruhiyati va ongiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga ularning real hayotdagi ijtimoiy-psixologik moslashuvini izdan

chiqarishga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, virtual olamga tobe bo'lish o'smir o'quvchilarning o'zlashtirish bilan bog'liq imkoniyatlariga keng salbiy ta'sir etib, ularning o'quv vazifalarini bajarishga bo'lgan ishtiyoqlarini so'ndirib, salomatligiga ham katta putur yetkazadi.

Natijada, o'smir yoshlarda boshqalarnikidan ajralib turuvchi, real hayotdan uzoqlashishga qaratilgan hayotiy qadriyatlar tizimi shakllanadi.

Psixologik talqinga ko'ra, virtual olam ma'lumotlari o'smir yoshlarning faol ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ham salbiy ta'sir etib, uning oqibatida, guruh sharoitida shaxslararo munosabatlarning samarali kechishiga xizmat qiluvchi do'stonalik, ochiqlik, muloqotmandlik, hamdard bo'la olish (empatiya), ijtimoiy faollik, kognitiv faollik kabi ijobiy sifatning rivojlanish noqulayliklar olib keladi. Virtual olamga qaram bo'lib qolgan o'smir yoshlar qoida tariqasida, ishga va turli ijtimoiy funktsiyalarni bajarishga kamroq e'tibor beradi. Bunday holat, ularning ta'lim va oilaviy hayot sharoitlariga jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Mahalla yoshlarini ya'ni o'smir o'quvchilarni virtual olam ta'sirlaridan himoya qilishning asosiy vositalaridan biri, bu ularda kompyuter savodxonlik madaniyatini shakllantirish, uni o'z vaqtida tarbiyalash, yoshlarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini yanada takomillashtirish kabi ishlar, eng muhim chora-tadbirlarni turkumidan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagi PQ-357-son "2022 -2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz>.
3. Ёкубова М.И. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти. Дисс. Автореф. Фалс.фан.номз. - Т., 2006. -Б.10.
4. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. - Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. – Б.265.
5. Умаров Б, М.Ахмедова "Очиқ ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик". Т.: - 2012. – С.34.
6. Dolimova N.M. Kompyuter o'yinlariga qaram bo'lgan o'smirlarning psixologik diagnostikasi va tuzatish xususiyatlari. O'zMU. Abstrakt. T.;, 2010. - 24 b.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. -T.: «Muxlis va texnologiya», 2012. – B.45.
8. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi (uslubiy qo'llanma) Toshkent: 2015. - 91 b.
9. Shukurov B.S. Internetning yoshlar ongiga salbiy ta'siri haqida// "Zamonaviy psixologiyaning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-metodik maqolalar to'plami. O'zMU, Toshkent, 2019 yil 13 mart. – B.143-144.